

**XALQ HUNARMANDCHILIGI SAN’ATIDA NAQSH ELEMENTLARINING TURLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada har bir xalq amaliy san‘at turlarida o‘ziga xos tuzilishga, ko‘rinishiga va mazmuniga ega bo‘lgan naqshlar ishlataladi. Naqqoshlik, kashtachilik, zardo‘zlik, ganch o‘ymakorligi, yog‘och o‘ymakorligi va boshqalarni o‘rganishga kirishayotgan har bir kishi naqsh elementlarini chizishni o‘rganishi kerakligi to‘g‘risida fikirlar yoritilgan.

**Аннотация:** В статье использованы узоры, имеющие в каждом виде народного творчества свою уникальную структуру, внешний вид и содержание. Идея заключается в том, что каждый, кто начинает изучать живопись, вышивку, ювелирное дело, резьбу по ганчу, резьбу по дереву и другие виды искусства, должен научиться рисовать элементы узора.

**Annotation:** The article uses patterns that have their own unique structure, appearance and content in each type of folk art. The idea is that everyone who begins to study painting, embroidery, jewelry, ganch carving, wood carving and other types of art should learn to draw elements of a pattern.

**Kalit so‘zlar:** hunarmand, bezak элементлари, барг, анор, гаримдори, нусха кўчириш, rang-barang, san‘at, tafakur, qiziqish, ijod, qobiliyat.

**Ключевые слова:** ремесленник, декоративные элементы, лист, гранат, гаримдори, копирование, красочный, искусство, мышление, интерес, творчество, способность.

**Keywords:** craftsman, decorative elements, leaf, pomegranate, garimdori, copying, colorful, art, thinking, interest, creativity, ability.

Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy va muhim turlaridan hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san‘atining ko‘pdan-ko‘p sohalari bilan uyg‘unlashib ketadi. Ammo tasviriy va amaliy san‘at, buyumlarga badiiy ishlov berish jarayoni hamda xalq hunarmandchiligining o‘ziga xosligi, yo‘llari, xususiyatlari bir-biridan farqlanadi. Respublikamizda mavjud bo‘lgan xalq hunarmandchiligining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Xiva, Termiz, Urganch, Namangan, Andijon, Farg‘ona, Chust, Shahrisabz va boshqa markazlarining ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos bo‘lib, o‘ziga xosligi jihatidan bir-biridan ajralib turadi. Hunar – muayyan tayyorgarlikni talab etadigan va tirikchilik manbai bo‘lgan ijodiy mehnat faoliyati. Hunarli – biror hunarni puxta egallagan shaxs. Hunarmand – biror hunar turi bilan shug‘ullanuvchi usta. Hunarmandchilikning asosiy belgilari oddiy mehnat qurollari yordamida biror ishning bajarilishi va ishlab chiqarishning yakka tartibdaligidadir. Hunarmandchilik musulmon jamiyatida azaldan erkaklar va ayollar o‘rtasidagi mehnat taqsimotini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos oyna bo‘lib kelgan. Erkaklar ko‘pincha bozorda sotish uchun, xotin-qizlar esa oila ehtiyoji uchun mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan. Kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, gazlama ishlab chiqarish, tikuvchilik

ustaxonalarida kiyim tikish, zardo'zlik, naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi faqat erkaklar shug'ullanadigan ish sanalgan. Xotin-qizlar esa kashtado'zlik, gilam to'qish, namat bosish bilan band bo'lган. Ular shuningdek, arzon paxta matolar to'qishgan, sopol, ganch o'yinchoq, idishlar yasashgan. XX asrga kelib, bu an'anaviy turmush tarzi keskin o'zgardi. Shahardagi xotin-qizlar an'anaviy hunarmandchilik bilan mutlaqo shug'ullanmay qo'yishdi, chekka qishloqlardagi ayollargina ajdodlari kasbkorlarini saqlab qolishdi. Sho'ro davlati tanazzulga yuz tutganidan keyin an'anaviy hunarmandchilikka munosabatda keskin o'zgarish ro'y berdi. Xotin-qizlar ehtiyoj tufayli hunarmandchilik ishlab chiqarishi bilan faol shug'ullanishga kirishdilar. Chunki sobiq sho'ro davrida iqtisodiyotning barbod bo'lishi barchani yangi ish topishga majbur etdi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida tanazzuldan chiqish uchun an'anaviy hunarmandchilik bilan shug'ullanish maqbul yo'l bo'lib qolgan edi. Shu tariqa kutilmagan o'zgarish yuzaga keldi – hunarmand ayollar bozorni egallashdi. Xalq hunarmandchiligi naqqoshlik, ganchkorlik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, metal o'ymakorligi, kashtachilik, quroqchilik, zardo'zlik, gilamchilik, gazlama to'qish, pazandachilik, yog'ochlarni kuydirib ishlash, kulolchilik, kosibchilik, maxsido'zlik, sartaroshlik, temirchilik, pichoqchilik, anjomsozlik, qulfsozlik, misgarlik, ignasozlik kabi sohalarga ega bo'lib, o'zida mehnat va kasb ta'limining ko'pgina xususiyatlari – amaliyligi, ijodiyligi, milliyligi, mahalliy xom ashyolarni topish va ta'mirlashning qulayligi, o'g'il va qiz bolalar mehnatining o'ziga xosligi, murakkab qurilmalar, uskunalar, asboblar va dastgohlar talab qilmasligi, mashg'ulotlarni tashkil etishning soddaligi bilan ajralib turadi. Natijada bu sohani yetaricha o'rgangan, ma'lum kasblarni egallagan yoshlearning ishsiz qolmasliklari, mehnat bozorining raqobatbardoshligi bilan alohida e'tiborga molikdir. Bugungi kunda ishlab chiqarilgan hunarmandchilik buyumlarini uch guruhga bo'lish mumkin: ro'zg'orda foydalanish (asosan qishloq tumanlarida), bozor uchun tayyorlangan buyumlar, shuningdek, ko'rgazmalarda ishtirok etishga mo'ljallangan hunarmandchilik buyumlar.

Har bir xalq amaliy san'at turlarida o'ziga xos tuzilishga, ko'rinishiga va mazmuniga ega bo'lgan naqshlar ishlatiladi. Naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi va boshqalarni o'rganishga kirishayotgan har bir kishi naqsh elementlarini chizishni o'rganishi kerak. Bu elementlar naqsh ishlashning alifbesi hisoblanadi. Odatta badiiy naqshlar chizishda ko'proq barg tasvirlaridan foydalaniladi. Bunda barg islamiy naqsh elementlari sirasiga kirganligi sababli nozik, nafis ko'rinishlarda tasvirlanadi.

**Barg** – o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi o'simlik bargining uslublashtirib olingen tasviri. Barg naqsh kompozitsiyasidagi to'ldiruvchi va husn beruvchi elementdir. U tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Oddiy barglarga uch barg, bodom bargi, tol bargi va boshqalar kiradi. Murakkab barglarga esa ko'p barg, shobarg va boshqalar kiradi. Barglarning quyidagi turlari bor:

**Shobarg** – (shohona barg) islamiy naqsh elementlaridan biri bo'lib, barglar ichida eng kattasi. Shobargni naqqoshlar bahorgi uyg'onish ramzi sifatida ifoda etganlar.

**Qo'shbarg** – ikki bargdan iborat bo'lgan o'simliksimon naqsh elementi. **Ko'pbarg** – bir necha barglardan tashkil topgan o'simliksimon naqsh elementi. **Chor barg** – to'rt bargdan iborat o'simliksimon naqsh elementi.

**Xurmo bargi** – xurmo daraxti bargining naqqoshlar umumlashtirib olishgan tasviri. Barglardan tashqari, naqqoshlikda quyidagi islamiy naqsh elementlaridan keng foydalaniladi:

**Gullar** – tabiatdagi gullarning uslublashtirib olingen tasviri bo'lib, targ'il pardoz berilganidan so'ng naqshlarga yanada ko'rk va husn bag'ishlaydi. Gul elementlari asosan naqsh shakllarining markaziy qismlariga joylashtiriladi. Gullarning har xil turlari bo'lib, ular o'ziga xos nomlanadi. Gullar ham tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab gullarga bo'linadi. Murakkab gullarga pistagul,

ko'pbargli gul va shu kabilar, oddiy gullarga esa oygul, lola gul, no'xat gul va boshqalar kiradi. Gullar har xil tuzilishga ega bo'lganligi uchun ularning o'ziga xos nomlari bor.

**Oygul** – bir necha yaproqlik moychechak shaklidagi naqsh elementi bo'lib, yaproq'ining chokiga qarab, uch yaproqli oygul, besh yaproqli oygul va hokazo deb nomlanadi. U o'simliksimon naqsh kompozitsiyasining tarkibiy qismini tashkil etadi va juda ko'p qo'llaniladi. Oygulni naqqoshlar baxt-iqbol ramzi tariqasida qo'llaydilar.

**Gultojixo'roz** – gultojixo'roz gulining umulashtirib olingan islamiy naqsh elementi.

**Zirk guli** – juda chiroyli yaproqli gul bo'lib, u O'rta Osiyo naqshlarida juda ko'p uchraydi. Uni azaldan naqqoshlarimiz osoyishtalik va umrboqiylik ramzi ifodasi sifatida qo'llab kelganlar.

**Lola** – naqsh kompozitsiyasida ustalar juda ko'p qo'llaydigan islamiy naqsh elementi.

**Anor guli** – anor tasviridan tashkil topgan islamiy naqsh elementi. Farg'ona naqqoshlak mактабида anorgul, ikki xil: tabiiy, ya'ni tabiatda qanday bo'lsa, shunday yoki uslublashtirilgan holda tasvirlanadi. Anor tasvirlangan bu naqshlar ko'pincha uning ichki qismi ham ko'rsatiladi. Anorgul naqshi kulolchilikda, misgarlik, kashtachilikda juda ko'p qo'llaniladi.

Barg va gullardan tashqari quyidagi naqsh elementlari ham mavjud:

**Bodom** – tabiiy shakldan uslublashtirib tasvirlangan islamiy naqsh turi. U zargarlik buyumlari, naqqoshlik buyumlari, do'ppilar, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik va boshqa xalq amaliy bezak san'ati turlarida keng ishlatiladi. Qadimda ota-bobolarimiz bu naqsh turini an'ana tariqasida baxt-iqbol ramzi sifatida ishlatib kelganlar.

**Anor** – o'simliksimon naqsh elementi. Naqqoshlik, kulolchilik, misgarlik, gilamdo'zlik, kashtachilik, zardo'zlik va boshqalarda juda ko'p ishlatiladi. Anor elementi qadimdan ishlatilib kelinganligi sababli u to'qchilik va to'kin-sochinlik ramzi sifatida qo'llanilgan.

**Jingalak** – islamiy naqsh elementi bo'lib, naqsh kompozitsiyasida bo'sh joylarni to'ldirish maqsadida ishlatiladi. Bu naqsh elementi qadim zamondan ishlatilib kelinadi. Jingalak to'kinsochinlik, boylik, hamisha yosharib turuvchi ona tabiat ramzidir.

**Qalampir** – o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, turli ko'rinishda tasvirlanadi. **Shkufta** – o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, novdalarni birbiri bilan bog'lash va yuzalarni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Shkufta tuzilishi jihatidan turlicha bo'ladi: bir yerda kichik, sodda bo'lsa, ikkinchi o'rnida ikki tomonidan kelayotgan shkufta qo'shilib, madohil yoki shunga o'xshash elementni hosil qiladi. Shkufta assosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak, gajak ko'rinishlarda o'zaro bog'laydi. Bog'lam va sirtmoqlar – o'simliksimon naqsh elementlari bo'lib, bir-biri bilan chalkashib o'tadi, umumiyo ko'rinishi xuddi sakkiz raqamini eslatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.S.Shermuxamedov, M.M.Parpiyev, G.S.Sharipova "Xalq hunarmandchiligi" darslik
2. X.T.To'lqinova, D.A.Rajabova "Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash" o'quv qo'llanma
3. Тулкинова.Х. (2022). Innovatsion yondashuv asosida o 'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(4).
4. Tulqinova X.T. Technology in education electronics-didactic occupation means without applying the effectiveness of the organization // International Multidisciplinary scientific conference on ingenious global thoughts hosted from KualaLumpur, Malaysia. May 31st 2021: <https://conferencepublication.com>
5. Xolida, T. T., & Maftuna, N. (2022, May). ENSURING THE CONTINUITY OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN TECHNOLOGY. In Conference Zone (pp. 81-85).

6. Xolida.T. T., & Maftuna, A. (2022, May). THE ROLE OF CLUBS IN CAREER GUIDANCE. In Conference Zone (pp. 33-35).
7. Tolqunovna.T.X. (2023). Development of students' professional interests based on an innovative approach. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 19, 157-159.